

**ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI O'QITISHDA
QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR**

Karimova Charos Ibrohimjon qizi

Andijon viloyati Buloqboshi tuman 2-sون politexnikumi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda zamonaviy interfaol metodlarning ahamiyati, ularni dars jarayonida qo'llash imkoniyatlari hamda samaradorligi tahlil qilinadi. Muallif interfaol yondashuvlarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati va estetik didni rivojlantirishdagi o'rnini ochib beradi. Darsda qo'llaniladigan "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "Baliq skeleti", "Blits so'rov" kabi metodlar orqali o'quvchilarning bilim darajasi va darsga bo'lgan qiziqishi ortishi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotda interfaol metodlardan unumli foydalanish bo'yicha tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, ona tili, adabiyot, ta'lif, dars jarayoni, mustaqil fikrlash, kommunikativ yondashuv, "INSERT", "Aqliy hujum", didaktik metodlar.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashi jahoning turli rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy ta'lif sohihasida o'zaro hamkorlikni o'rnatishi katta yutuqlarga olib keldi. Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa davr ichida ta'lif tizimida juda katta o'zgarishlar bo'ldi, olamshumul kashfiyotlar va yutuqlarga ega bo'ldik. Ma'lumki, fan va ta'lif doimo birlikda va o'zgarishda rivojlanadi. Ta'lif tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o'qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda. Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lif sohasiga kirib kelishi - bu ta'limda tub burulish davri bo'ldi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Innovatsion texnologiya va metodlar bu o'quv jarayonida asosiy boshqaruvchi - o'qituvchi, boshqariluvchi - o'quvchi faoliyati birgalikda yo'naltiriladi va bu jarayonda o'qituvchidan ham o'quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Hozirgi kunda ta'lif tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tatbiq qilishi lozim. Pedagog - ya'ni bola yetaklovchi, bolaga faqat tayyor fikr bermasligi kerak balki uning fikrini kengaytirishi, olamni o'rganishga imkon beruvchi

vositalarni topa bilishga o'rgatishi zarur. Biz bir necha zamonlar an'anaviy uslubda ish olib bordik. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta'minlashdir. O'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zлari xulosa qila olsa, ko'zlangan maqsad amalga oshadi. O'qituvchi o'quvchilarining faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o'qitish jarayonining asosi sanaladi. Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq. Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nigmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin. Ma'lumki, «Adabiyot » darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz. Keyingi paytlarda ilg'or tajribali o'qituvchilar tamonidan darsning seminar -dars, bahs - dars, suhbat - dars, sinov - dars, konferensiya - dars, sayohat-dars kabi turlari o'tkazilmoqda. Bunday dars turlari o'quvchining dars paytidagi loqaydligiga barham berib, unda faollikni uyg'otadi, bolani o'yashga, muhokamali fikr yuritishga, so'zlashga va izlanishga hamda mehnat qilishga o'rgatadi. Buning uchun hamma vaqt o'qituvchi, o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq shug'ullanib, bilim va mahoratini tinmay oshirib borishi zarur. Shundagina u o'z nomiga munosib faoliyat kishisi bo'ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir darsi mazmunli, maroqli orginalligi bilan farqli ekanligini, uning mashg'ulotlariga o'quvchilar tabora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o'quv

materiallarini, o'zaro ishtiyoy bilan o'rganishga kirishib faollik va uyushqoqlik ko'rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Bunday natijaga, shubhasiz dars jarayonida o'qitish usullaridan har tomonlama foydalanish orqali erishish mumkin. Men o'z darslarimni o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqaman, ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilaman. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun:

«Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzag», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalanaman.

Darslarda o'zim o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanishga harakat qilaman. Ta`lim har doim yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yordan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardanbiri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Yana darslarimni qiziqarli va tushunarli bo'lishi uchun "Sinkveyn", "Assesment", "Tushunchalar tahlili" kabi metodlardan ham, yana "Matn tahlili" metodlarini ham ko'pbora qo'llayman, chunki bir xil metodlarni qo'llash ham bolalarni zeriktirib qo'yishi mumkin shuning uchun ularni tez-tez almashtirib turaman bu esa darsimni samarali chiqishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunimiz nihoyatda shiddatkor. U har bir o'qituvchidan o'z ishiga ijodiy yondashishni, ta'limning yangi shakllaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, adabiyot darslarida o'quvchi o'zligini anglasa, o'zini va o'zgalarni tushuna olsa, o'qituvchi o'zining kamchiliklarini ko'ra olsa va ularni to'g'rilashda g'ayratli bo'lsagina, dars kashfiyat darajasiga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamarasulov, S. (2020). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. Toshkent.
2. Normurodov, A. (2021). Adabiyot darslarida interfaol metodlar va ularning samaradorligi. Ilmiy maqola. – “Ta’lim va fan” jurnali, №3, 45–50-betlar.

3. To‘xtasinova, M., & Qurbanov, M. (2020). Interfaol metodlar asosida dars o‘tish texnologiyasi. Toshkent.
4. Xolboyeva, M. (2019). Ona tili va adabiyot ta’limida zamonaviy yondashuvlar. Toshkent.
5. G‘anieva, G. (2022). Ona tili o‘qitish metodikasi: interfaol yondashuv asoslari. – Pedagogik innovatsiyalar jurnali, №2, 60–65-betlar.